

**YURIDIK XIZMAT HUQUQIY MAQOMINI BELGILOVCHI ASOSIY NORMATIV-HUQUQIY
HUJJATLAR**

Nuratdinova Ilmira Muratbaevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

yuridik texnikumi "Mutaxassislik fanlar"

kafedrasi mudiri Asembaev Aydos

Qoraqalpog'iston Respublikasi yuridik texnikumi sud huquqiy faoliyat

01-22 guruh o'quvchisi

Annatatsiya: O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmat tizimi davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining yuridik xizmati, respublika va mahalliy davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlarining yuridik xizmati, viloyat, shahar, tuman hokimliklarining yuridik xizmati hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmatidan iborat bo'lganligi uchun yuridik xizmatning huquqiy maqomi bir nechta qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Kalit so'zlar: Yuridik xizmat, davlar organlari, normativ huquqiy hujjat, Nizom, qaror, xo'jalik yurituvchi subyektlar, huquqiy maqomi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida davlat organlarida yuridik xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish vazifasi qo'yildi.

Farmon ijrosi doirasida joriy yil 19-yanvar kuni davlatimiz rahbari imzolagan “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror bu borada muhim qadam bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 yanvar kungi PQ-2733-sон “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori bilan davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari faoliyatining asosiy yo'naliishlari etib quydagilar belgilandi:

davlat organlari va tashkilotlarining huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilayotgan (qabul qilinayotgan) normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihibalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish;

davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida ularning tarkibiy tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish;

davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining huquqiy madaniyati

va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazishda ishtirok etish;

shartnomaviy-huquqiy va talabnoma - da'vo ishlarini yuritish, davlat organlari va tashkilotlarining mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmat tizimi davlat hokimiyati va boshqaruvi oliv organlarining yuridik xizmati, respublika va mahalliy davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlarining yuridik xizmati, viloyat, shahar, tuman hokimliklarining yuridik xizmati hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmatidan iborat bo'lganligi uchun yuridik xizmatning huquqiy maqomi bir nechta qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi yuridik xizmatining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining 2005-yil 7-apreldagi farmoyishi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Devoni to'g'risida"gi Nizomida belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati yuridik xizmatining huquqiy maqomi esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2005-yil 18-apreldagi Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Devoni to'g'risida"gi Nizomda o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yuridik xizmatining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Apparatining funksional bo'limlari to'g'risidagi Nizomlami tasdiqlash haqida"gi Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Apparatining Yuridik bo'limi to'g'risida»gi Nizom bilan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 25-iyuldagи "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasini qisman o'zgartirish to'g'risida"gi PQ-131-sonli qaroriga muvofiq yuridik bo'lim Vazirlar Mahkamasi Apparati rahbariga bo'ysunadi. Vazirlar Mahkamasi Apparati rahbar esa maqomiga ko'ra Bosh vazir o'rinnbosariga tenglashtirilgan. Viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman va shahar hokimliklari yuridik xizmatining huquqiy maqomini belgilab beruvchi maxsus normativhuquqiy hujjat mavjud bo'Imaganligi uchun ularning maqomi shu hokimliklar yuridik xizmati faoliyatini tartibga soluvchi ichki nizomlarda hamda mansab yo'riqnomalarida belgilab qo'yiladi. Shu bilan biigalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xo'jalik yurituvchi subyektlaming iqtisodiy nochorligi va shartnoma majburiyatlarining bajarilishi uchun mansabdor shaxslaming javobgarligini kuchaytirish to'g'risida"gi 1998-yil 4-martdagi PF-1938-son Farmonining bajarilishini ta'minlash chora-tadbirlari haqida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5- yanvardagi "Davlat boshqaruvi hududiy organlari tuzilmasini takomillash- lirisli to'g'risida"gi qarorlarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-avgustdagi "Toshkent shahar hokimligi boshqaruv apparati tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida muayyan darajada viloyat, Toshkent shahar hamda tuman va shahar hokimliklari yuridik xizmat - ining huquqiy maqomi belgilab

qo'yilgan. Davlat boshqaruvi organlari va korxonalar yuridik xizmatining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagи "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 2-martdagи 118-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruв ornанлари va korxonalardagi yuridik xizmat to'g'risida"gi Nizom bilan belgilab qo'yilgan. Mazkur Nizomda yuridik xizmatga oid boshqa qonun hujjatlaridan larqli o'larоq davlat boshqaruvi organlari hamda korxonalar yuridik xizmati xodimlariga qo'yiladigan talablar, yuridik xizmatning vazifalari, huquqi va mas'uliyati masalalari Batafsil yoritib berilgan. Xo'jalik boshqaruvi organlari yuridik xizmatining maqomini belgilab beruvchi maxsus normativ-huquqiy hujjat bo'limganligi tufayli "O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruв organlari va korxonalardagi yuridik xizmat to'g'risida"gi Nizom ular uchun namunaviy bo'lib hisoblanadi. 1993-yil 2-martdagи Nizom yuridik xizmatning faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan mukammalroq ishlab chiqilganligi, unda barcha davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlaming yuridik xizmati tartibga solinganligi, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlarining yuridik xizmati uchun namunaviy bo'la olishi bois yuridik xizmatning huquqiy maqomini belgilab beruvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat deb hisoblash mumkin. Nodavlat notijorat tashkilotlari yuridik xizmatining huquqiy maqomi esa mazkur tashkilotlarning ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak". Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan va bugun hayotimizdan tobora chuqur o'rin olayotgan ushbu tamoyil yurtdoshlarimizning hayotdan rozi bo'lib yashashiga zamin yaratmoqda. Bugun davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ushbu ezgu tashabbusni to'la ro'yobga chiqarish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Biroq bu yo'nalishda bir qator muammolar ham uchrab turibdi. Xususan, davlat organlari va tashkilotlari rahbar va xodimlari ba'zida o'z faoliyatida qonunlarga to'la riosa etmasligi fuqarolarning haqli e'tiroziga sabab bo'layotganiga ko'p bor guvoh bo'lmoqdamiz. Vaholanki, har bir idora-tashkilotdagi yuridik xizmat xodimlari bunday huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha rahbarlar va mansabdor shaxslarni eng birinchi bo'lib ogohlantiruvchi mas'ul shaxs hisoblanadi. SHu bilan birga, davlat organlari faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashda yuridik xizmat faoliyatini muntazam takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Shu kabi muammolar davlat organlari va tashkilotlarida yuridik xizmat faoliyatining mutlaqo yangi modelini yaratishni taqozo qilmoqda edi. -Prezidentimizning 2020 yil 19 mayda qabul qilingan "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu borada muhim huquqiy asos bo'ldi. Ushbu farmon bilan shahar va tuman adliya bo'limgar huzurida davlat tashkilotlariga yuridik xizmatlar ko'rsatish markazlari tashkil etish vazifasi belgi-landi.

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 sentyabrda qabul qilingan “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini eksperiment tariqasida tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida ushbu markazlarni huquqiy tartibga solish mexanizmlari belgilab berildi.

Aytish kerakki, so'nggi yillarda muhim islohotlarni tanlab olingen muayyan hududlarda eksperiment tariqasida amalga oshirish yaxshi an'anaga aylandi. Mazkur tizim, birinchidan, yangi islohot davlat va jamiyat hayotiga qanday ijobiylar o'zgarishlar olib kelishini tahlil qilishga ko'mak-lashsa, ikkinchidan, eksperiment davomida tizimdagagi muammolarni barvaqt aniqlab, uni yanada takomillashtirish istiqbollari belgilab olinadi.

Bu an'anaga rioxqa qilingan holda, yuridik xizmatlar ko'rsatish markazlari ham eksperiment tariqasida Namangan shahri, Qarshi va Marhamat tumanlari adliya bo'limlari qoshida tashkil etiladi. Muhim jihatlardan biri, eksperiment doirasida uchta hududda davlat organlari va tashkilotlarining markaz bilan kelishmasdan qabul qilgan buyruqlari, farmoyishlari, shartnomalari va yuridik tusdagi boshqa hujjatlari haqiqiy emas, deb hisob-lanadi. YA'ni yuqorida nomlari keltirilgan hududlarning davlat organ va tashkilotlari yuridik tusdagi har bir hujjatni markaz bilan kelishilgan holda qabul qilishi majburiyati belgilanmoqda.

Yuridik xizmat faoliyatining rahbar ta'sir doirasida bo'lishi bevosita yuridik tusdagi hujjatning mazmuni qonun talab-lariga emas, balki rahbar manfaatiga moslashishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, nizomda yuridik xizmatlar -ko'rsatish markazlari davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga bo'yusunmasligi alohida belgilangan. Bu esa tegishli davlat organi va tashkilotlarida qonuniylikni ta'minlash bo'yicha mutlaqo yangi tartibni vujudga keltiradi. eng asosiysi, yuridik xizmat rahbarlardan mutlaqo mustaqil holda faoliyat yuritadi.

Amaliyotda tuman miqyosidagi davlat organlari va tashkilotlaridagi ayrim yuridik xizmat xodimlari o'z funktsiyaviy majburiyatlaridan tashqari boshqa ishlar bilan shug'ullanishga majbur bo'layotganiga ham guvoh bo'lmoqdamiz. Bu esa, o'z navbatida, yuridik xizmat xodimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari susayib ketishiga olib kelmoqda. Markaz tashkil etilishi orqali qonuniylik ta'minlanishi bilan bir qatorda, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash, ularning mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash va mazkur tuzilmalar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirib borish kabi eng asosiy funksiyalar bilan shug'ullanishga olib keladi. Ya'ni yuridik xizmat faoliyatiga taalluqli bo'limgan funksiya va vazifalar to'liq olib tashlanishiga erishiladi. Bu orqali yuridik xizmat ko'rsatish sifati oshadi, muhimi, mazkur faoliyatning izchilligi ta'minlanadi.

Yana bir jihat, davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlarini modernizatsiyalash yoki raqamlashtirish zaruriyati bilan bog'liq. Hujjatlar lo-yihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash, xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish, davlat organlari va tashkilotlari mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilishga oid faoliyatlarni raqamlashtirish yuridik xizmat faoliyatida ortiqcha resurs va xarajatlarni qisqartiradi. Qarorda markaz o'z

faoliyatini davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hujjat almashinuvi yagona elektron tizimi orqali amalga oshirishi belgilanishi amaliyoti pandemiya sharoitidan keyin ham o'z ijobiy samarasini beradi. Yuridik xizmatning yangi raqamlashgan platformasi markazlar hamda davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida hujjat almashinuvining yagona elektron tizimining izchil va shaffof ishlashiga olib keladi.

eksperiment tariqasida yuridik xizmatlar ko'rsatish markazlarining tashkil etilishi davlat organlari va tashkilotlarida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olishga oid yaxlit mexanizmni shakllantirishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. eksperiment davrida aniqlangan kamchilik va muammolar tahlil qilinib, keyinchalik bartaraf etilgach, butun respub-lik hududida davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatishning yangi modeli joriy etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon
2. 2017 yil 19 yanvar kungi PQ-2733-som "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
3. 2005-yil 7-apreldagi farmoyishi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Devoni to'g'risida"gi Nizomi
4. 2005-yil 18-apreldagi Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Devoni to'g'risida"gi Nizom
5. 2004-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini Apparatining funktsional bo'limlari to'g'risidagi Nizom
6. 2005-yil 25-iyuldagagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasini qisman o'zgartirish to'g'risida"gi PQ-131-sonli qarori
7. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 sentyabrda qabul qilingan "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini eksperiment tariqasida tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori